



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA KELAJAK TARMOQLARINING O'RNI

Bayev Adil Xabibullavich

Toshkent davlat agrar universiteti

ORCID: 0009-0002-3513-6293

adilbaev140@gmail.com

Annotatsiya. So'nggi yillarda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha strategiya va dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning maqsadi hududlarda aholi turmush darajasi va sifatini oshirishdan iborat. Mazkur maqola O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda raqamli texnologiyalarni samarali ta'sirini o'rganishga bag'ishlanadi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish uchun "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi (2024) qabul qilindi. Tahlil natijalari raqamli texnologiyalar kambag'allikni qisqartirishda ijobiy ta'sir etishini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunida raqamli texnologiyalarni kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini oshirish modeli taklif etildi. Shuningdek, maqolada inson resurslarini rivojlantirish, mehnat bozorini isloh qilish, bandlikning zamonaviy shakllaridan foydalanish, xalqaro standartlar asosida munosib mehnat standartlarini keng joriy etish orqali kambag'allikni qisqartirishda davlat xizmatlari sifatini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, kambag'allikni qisqartirish, moliyaviy xizmatlar, elektron tijorat platformalari, kambag'allik, strategiya, dastur, turmush darajasi, farovonlik, inson resurslarini rivojlantirish, mehnat bozori, xalqaro andozalar, munosib mehnat munosabatlari, farmon.

РОЛЬ БУДУЩИХ СЕКТОРОВ В СОКРАЩЕНИИ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Баев Адил Хабибуллаевич

Ташкентский государственный аграрный университет

Аннотация. В последние годы для сокращения бедности в Узбекистане были разработаны программы и стратегии. Цель этих программ и стратегий состоит в том, чтобы повысить уровень жизни населения и понизить уровень безработицы и бедности. В данной статье предлагается использовать цифровые технологии для снижения бедности и безработицы в стране. В научном исследовании было взято за основу программа Республики Узбекистан за 2024 год: «От бедности до благосостояния» (2024). Для проведения этого исследования был проведен анализ цифровых технологий для повышения благосостояния народа республики. В заключении научной статьи были приведены указы и постановления Президента Республики Узбекистан, а также польза применений цифровых технологий для сокращения бедности в стране. В статье также рассмотрены человеческие ресурсы, обновление рынка труда, использование современных методов обеспечения занятости населения, повышение качества предоставляемых услуг со стороны государства с целью повышения трудоустройства населения страны.

Ключевые слова: цифровые технологии, сокращение бедности, финансовые услуги, электронные коммерческие платформы, бедность, стратегия, программа, уровень жизни, благосостояние, развитие человеческих ресурсов, рынок труда, указ, трудовые отношения.

THE ROLE OF FUTURE SECTORS IN POVERTY REDUCTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Baev Adil Khabibullaevich
Tashkent State Agrarian University

Abstract. *In recent years, strategies and programs aimed at poverty reduction have been developed in Uzbekistan, with the goal of improving the living standards and quality of life for the population in various regions. This article is dedicated to studying the effective impact of digital technologies on poverty reduction in Uzbekistan. To conduct this research, the "From Poverty to Prosperity"(2024) program was adopted. The analysis results show that digital technologies have a positive impact on poverty reduction. At the conclusion of the study, a model to enhance the impact of digital technologies on poverty reduction was proposed. The aim is to improve the quality of public services in poverty reduction by developing human resources, reforming the labor market, implementing modern forms of employment, and widely introducing decent labor standards based on international standards.*

Keywords: *digital technologies, poverty reduction, financial services, e-commerce platforms, poverty, strategy, program, living standards, prosperity, human resource development, labor market, international standards, decent labor standards, decree.*

Kirish.

Kambag'allik insoniyat taraqqiyotini tashvishga solayotgan jahon miqyosidagi muammo bo'lib, butun dunyo bo'ylab qashshoqlikning barcha ko'rinishlariga barham berish Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030- yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibining asosiy maqsadiga aylandi. Kambag'allikning yagona ta'rifi yo'q. Ba'zilar kambag'allikni insonning asosiy ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'liqni saqlash) qondira olmaslik deb ta'riflansa, boshqalari kambag'allikni tanlash erkinligining yetishmasligi yoki kuniga 1,90 dollardan kam pul bilan yashash deb ta'riflaydi (Deng et.al., 2015). Kambag'allik - bu odamlar, uy xo'jaliklari yoki butun jamoaning ijtimoiy jihatdan maqbul minimal turmush darajasini qondirish uchun yetarli resurslarni boshqarishga qodir emasligi. So'nggi yillarda texnologiyaning rivojlanishi, ayniqsa raqamli texnologiyalar, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yangi yondashuvlar va yechimlarni to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaradigan va mavjud kambag'allik tadqiqot nazariyasiga qarshi turadigan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga yordam berdi (Лопатников, 2003). Texnologiyani rivojlantirish, ayniqsa raqamli texnologiyalar, kambag'allikni kamaytirishga yangi yondashuvlarni (va ko'rib chiqish usullarini) yaratdi, bu esa an'anaviy ravishda moliyaviy yordam va yengillashtirishga qaratilgan mavjud kambag'allik tadqiqot nazariyasiga qarshi turadi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-son Farmoniga muvofiq "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi (2024) qabul qilindi. Sofield, T., Bauer, J., Delacy, T. (2004) iqtisodchilari mehnat bozorini, band va ishsiz aholini tarkibiy tahlil qilish, ishsizlarni manzilli aniqlash va ularning hisobini yuritish — mehnat bozorini tahlil qilish va ishsizlarning hisobini manzilli yuritish, iqtisodiyotning rivojlanib kelayotgan tarmoq va sohalarida mehnat resurslariga bo'lgan talabni prognoz qilish, mehnat bozoridagi tarkibiy muammolarni aniqlash va nomutanosibliklarning oldini olish fiqirlari yuritishgan. Angliya iqtisodchisi May J. (1999). Xalqaro mehnat tashkiloti bilan faol hamkorlikda ishlashi, aholi bandligini ta'minlash dasturlarini shakllantirish, bo'sh ish o'rinlari hisobini yuritish, ishsizlarni ishga joylashtirish — har yil uchun hududlar, tarmoq va sohalar kesimida aholi bandligini ta'minlash dasturini ishlab

chiqish va uning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, mavjud bo‘sh ish o‘rinlari hisobini yuritish va monitoring qilish, ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirishni tashkil etish va ish beruvchilar bilan bog‘laydi. Kambag‘allik dinamikasi va tarkibini tahlil qilish, oilalarni kambag‘allikdan chiqarish individual rejalarining ishlab chiqilishini tashkil etish va ijrosini muvofiqlashtirish, aholini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni joylarga chiqqan holda o‘rganish hamda natijasi bo‘yicha fikrlar yuritgan. Mamlakatimizda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” (2024) dasturini amalga oshirish bo‘yicha respublika komissiyasiga har oyda ma‘lumot kiritib borishi, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman faoliyatini uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, istiqbolli loyihalar bilan ishlash ko‘nikmasi va malakasini oshirib borishni doimiy tahlil qilish, eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va baholash, faoliyatida aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdi kasbiy standartlarni ishlab chiqish, kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish, malakani baholash, xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda xorijda tan olinadigan kasbiy standartlarni ishlab chiqish, talab yuqori bo‘lgan kasb va xorijiy tillarga o‘qitish bo‘yicha davlat buyurtmasini shakllantirish, standartlar asosida malakani baholash xizmatlari bozorini tartibga solish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilishdi munosib mehnat sharoitlarini yaratish, mehnat me‘yorlariga rioya etilishini o‘rganish, mehnat huquqini ta‘minlash hamda mehnatni muhofaza qilish, munosib mehnat tamoyillari va xalqaro standartlarni joriy etish, mehnat munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, mehnat huquqlarini himoya qilish, shuningdek, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda munosib mehnat sharoitlarini ta‘minlash.

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘zbekistonda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdi kasbiy standartlarni ishlab chiqish, kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish, malakani baholash, xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda xorijda tan olinadigan kasbiy standartlarni ishlab chiqish, tartibga solish bo‘yicha mavjud bolgan ilmiy tadqiqotlarni organish ish orinlarini shaqillanishi, ishizlikva kambag‘allikni paydo bolishining qiyosiy solishtirish, statistika malumotlarini organish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, matiqiy fikirlash, ilmiy abstraksiyalash, malumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan kehg foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekistonda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha quyidagi tahlillar amalga oshirildi. Oilalarni kambag‘allikdan chiqarish individual rejalarining to‘g‘ri, maqsadli, manzilli tuzilganligi va natijadorligini hamda eng og‘ir ahvoldagi mahallalarning infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha ishlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tahlili;

- individual rejalarining ijrosini muvofiqlashtirish, zarur hollarda, ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish orqali samarali natijaga erishilishini ta‘minlaydi;

- individual rejalarini amalga oshirishda aniqlangan muammolarni mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda hal qilish hamda tizimli muammolar yechimi bo‘yicha takliflarni Respublika komissiyasiga kiritish;

- kambag‘al oilalarga va eng og‘ir ahvoldagi mahallalarga birlashtirilgan tashkilotlar rahbariyatining faoliyati samaradorligini monitoringini amalga oshirish. Aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish orqali kambag‘allik darajasini qisqartirish bo‘yicha Vazirlikning uch oy muddatda ijobiy natija bergan “100 ta eng samarali mikroloyiha” katalogini yaratdi hamda hokim yordamchilari orqali respublikaning barcha hududlarida ommalashtirish choralarini ko‘rdi.

- 2025-yil 1-dekabrda qadar 50 ta tumanda, 2026-yilda qolgan tumanlarda 50 — 100 gektardan ijara asosida ajratilgan qishloq xo'jaligi yer maydonlarida sanoatlashgan plantatsiya, bog' va uzumzorlar tashkil etiladi;

- 2025-yil 1-dekabrda qadar ijara asosida yer maydonlari ajratilgan tumanlarda kamida 40 gektar maydonda "bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida yuqori daromadli va eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha namunaviy loyihalarni amalga oshiriladi;

- 2026-yil 1-avgustga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda kamida ikkitadan ko'p qavatli kompleks sanoat markazlarini barpo etish va tadbirkorlarni joylashtirish loyihalarini amalga oshiriladi;

- sanoat kirib bormagan mahallalarda 2025-yil 1-dekabrda qadar 1 000 ta, 2026-yilda 2 000 ta qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda kichik ishlab chiqarish loyihalarini ishga tushiriladi;

- har yili kamida 500 ta hunarmandchilik va kasanachilik loyihalarini mahallaning o'zida joriy etish hamda kengaytirish choralarini ko'riladi;

- 2025-yil 1-dekabrda qadar 2 000 ta mahallada, 2026-yil yakuniga qadar qolgan mahallalarda salohiyatli tadbirkorlar, eksportyorlar va brokerlar bilan hamkorlikda yetakchi tadbirkorlar faoliyatini yo'lga qo'yishadi;

- 2025-yildan boshlab yetakchi tadbirkorlarni jalb qilgan holda iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga ixtisoslashgan mahallalar sonini har yili 10 foizga oshirib borishadi;

- har yili 50 ming nafar o'zini o'zi band qilgan fuqarolarni bosqichma-bosqich kichik biznes subyektlariga aylantirish choralarini ko'rishadi.

Ishsiz va kambag'al aholini ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos bo'lgan ishchi kasblarga o'qitish tizimini tashkil etish maqsadida:

a) Vazirlik huzuridagi "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlari negizida kasbiy ko'nikmalar markazlari tashkil etilmoqda;

b) Vazirlik kasbiy ko'nikmalar markazlarida:

2025-yil 1-yanvardan ish beruvchilar talabiga moslashuvchan o'qitish muddati va vaqtini nazarda tutuvchi tezkor kurslar yo'lga qo'yilishini;

2025-yil 1-martdan boshlab amaliy kasbiy ko'nikmalarni bevosita ish joyida shakllantirish imkonini beruvchi yangi tajribaning joriy etilishini;

2025-yil 1-maydan boshlab xalqaro tan olingan ta'lim dasturlarining joriy etilishini;

2026-yil 1-yanvarga qadar kasbiy ko'nikmalar markazlarini xalqaro baholash tashkilotlarining akkreditatsiyasidan o'tkazish orqali ularning bitiruvchilariga xorijda tan olinadigan sertifikatlar (malaka pasportlari) berilishini ta'minlanishi;

2026-yil 1-iyulga qadar malakali xorijiy tashkilotni jalb qilgan holda xalqaro standartlar bo'yicha kasbiy malakani baholovchi markazni tashkil qilinadi va ushbu markazda xorijiy davlatlarda tan olinadigan malaka sertifikati berishni yo'lga qo'yilishi.

Yurtboshimiz tomonidan

a) 2024-yil 1-noyabrdan boshlab Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan tekshiruvlar tekshiruv boshlangan paytdan boshlab Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilgan holda o'tkaziladi;

b) 2025-yil 1-martdan boshlab:

Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari mansabdor shaxslariga mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, aholi bandligi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaganligi uchun kameral nazorat o'tkazish vakolati beriladi;

mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzgan, Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari mansabdor shaxslarining qonuniy

faoliyatiga aralashgan, to'sqinlik qilgan yoki ta'sir o'tkazgan shaxslarga nisbatan jarima qo'llash tartibi joriy etiladi;

Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalariga "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi ma'lumotlaridan foydalangan holda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qurilayotgan, ta'mirlanayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan obyektlardagi ishchilar sonining loyiha-smeta hujjatlari hamda pudrat ishlari hajmiga muvofiqligi yuzasidan nazorat tadbirlarini o'tkazishga ruxsat etiladi;

Ichki mehnat bozorini himoya qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida mehnat qilayotgan xorijiy fuqarolar hisobini yuritish maqsadida yuridik shaxslarga va xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomalarni berish Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha quyidagi taxlillar amalga oshirildi. Oilalarni kambag'allikdan chiqarish individual rejalarining to'g'ri, maqsadli, manzilli tuzilganligi va natijadorligini hamda eng og'ir ahvoldagi mahallalarning infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ishlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tahlil etildi. Davlat hokimiyati organlari O'zbekistonda raqamli texnologiyalar va raqamli savodxonlik dasturlarini qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, o'quv tashabbuslari va fuqarolar uchun onlayn videodarslar o'tkazishda uning ahamiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishi lozim bo'ladi. Statistika tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar va kambag'allikni qisqartirish o'rtasida kuchli ijobiy munosabatlar mavjud bo'lib, bu "kambag'allikni qisqartirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi to'siqlar" va "raqamli texnologiyalarning kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar yoki qo'llab-quvvatlash zarurati" o'zgaruvchilaridir.

- vazirlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining Mehnat bozori tadqiqotlari institutini Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti etib qayta tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi.

- kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti zimmasiga respublikada demografik o'zgarishlar, mehnat bozorida vujudga kelayotgan tendensiyalar, ixtisosliklar bo'yicha mehnat resurslariga nisbatan talab va ehtiyojlar hamda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish vazifalari yuklatildi.

- hududiy jamg'armalarning ijro etuvchi direksiyalari tugatiladi hamda hududiy jamg'armalar faoliyatini tashkil etish va yuritish vazifalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi;

- hududiy jamg'armalar mablag'lari amaldagi yo'nalishlarga qo'shimcha ravishda "Loyiha menejerlari" guruhi tomonidan yuqori samara bergan ijobiy tajribalarni boshqa hududlarda joriy etish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirish, yetakchi tadbirkorlar va usta dehqonlarni jalb etishga sarflanmoqda. Endilikda xodimlarning mehnat huquqlarini kafolatlash hamda mehnat muhofazasini ta'minlash maqsadida:

- 2025-yil 1-yanvardan boshlab xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatni muhofaza qilishni kuchaytirish, ish beruvchilar bilan xodimlar o'rtasidagi muvozanatli mehnat munosabatlarini yanada qo'llab-quvvatlash hamda mehnat sohasidagi nizolarni hal etishni mediatsiya usulida videokonferensaloqa shaklida amalga oshirish tizimi joriy etiladi;

Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarning kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini oshirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan modeldan foydalanish taklif etildi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Dastur (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-son Farmoniga muvofiq "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi qabul qilindi.

Deng, X. H., Zeng, L., & Luo, M. Y. (2015). Research on precise identification of tourism poverty alleviation in the context of targeted poverty alleviation. *Ecological Economy*, 31(4), 94–98.

May J. (1999). *Poverty and Inequality in South Africa: Meeting the Challenge*. D.Philip, Cape Town.

Sofield, T., Bauer, J., Delacy, T., et al. (2004). *Sustainable Tourism Eliminating Poverty (STEP): An Overview*. Madrid: World Tourism Organization (WTO).

Л.И. Лопатников *Экономико-математический словарь: словарь современной экономической науки / Л. И. Лопатников. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Дело, 2003. – 520 с.*